

## **«Oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi, oziqaviy, biologik va energetik qimmatini aniqlash”dagi amaliy-hisob ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma**

**Ishning maqsadi** - oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi, uning oziqaviy, biologik va energetik qimmatini hisoblash usullarini o‘zlashtirish.

### **Nazariy qism**

O‘sish, harakat qilish va ishslash qobiliyati - bularning hammasi inson ovqat iste‘mol qilganda amalgalga oshishi mumkin. Inson ovqatlanishi uchun tarkibiy jihatidan turli xil bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan iste‘mol qiladi. Ularning kimyoviy tarkibi to‘yimlilik qiymatiga ta‘sir qiladi, hamda fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalarni belgilaydi.

Ovqat tarkibiga turli xil moddalar kiradi: suv, mineral moddalar, uglevodlar, azotli moddalar, lipidlar, fermentlar, vitaminlar, organik kislotalar, oshlovchi, bo‘Yovchi va aromatik moddalar, fitonsidlar va boshqalar. Ulardan ba‘zilari (uglevodlar, oqsillar, Yog‘ lar) to‘yimlilik xossasiga ega; boshqalari (organik kislotalar, oshlovchi, bo‘Yovchi, xushbo‘y moddalar va boshqalar) - mahsulotlarga maxsus ta‘m, xushbo‘ylik, rang beradi va shuning uchun markaziy asab sistemasiga va ovqatni hazm qilish organlariga ta‘sir qilib, katta o‘rin tutadi; ayrim mahsulotlarga fitonsidlar - bakteritsid xossalariiga ega bo‘lgan moddalar kiradi.

Hayvon va o‘simliklardan tayyorlangan barcha oziq-ovqat mahsulotlari turli xilda bo‘lishiga qaramay, faqat bir xil moddalardan iborat, biroq bu moddalar turli miqdoriy nisbatdadir.

Kimyoviy tarkibi bo‘yicha ular anorganik va organik moddalarga bo‘linadi. Anorganik moddalarga suv va mineral moddalar, organik moddalarga - Yog‘ lar, uglevodlar, oqsillar, fermentlar, vitaminlar va boshqalar kiradi. Ovqatlanishning almashtirib bo‘lmaydigan omillariga inson organizmida sintez qilinmaydigan va albatta ovqat bilan kelib tushadigan moddalar kiradi. Mahsulotning tarkibi insonning balanslangan ovqatlanish formulasiga qanchalik ko‘p mos tushsa, uning ozuqaviy qimmati shunchalik yuqori bo‘ladi.

**Oziq-ovqat mahsulotlari** - hayvon va o‘simliklardan tayyorlangan obyektlar bo‘lib, ovqatga asl holda Yoki qayta ishlangan ko‘rinishda, energiya, ta‘m va xushbo‘y moddalar manbai sifatida ishlatiladi.

**Oziq-ovqat mahsulotlarining tasnifi.** Oziq-ovqat mahsulotlari quyidagilarga bo‘linadi:

Ommaviy iste‘mol qilinadigan an’anaviy texnologiya mahsulotlari, aholi asosiy qismining ovqatlanishida doimiy foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Ommaviy iste‘mol qilinadigan kimyoviy tarkibi o‘zgartirilgan mahsulotlar (ma‘lum xossalarga ega mahsulotlar), bunga vitaminlashtirilgan kamYog‘ li (an’anaviyga nisbatan Yog‘ miqdori 33 % ga pasaytirilgan), past kaloriyali (kalloriyali 40 kkal/100 gr dan kam bo‘lgan va boshqalar) mahsulotlar ham kiradi.

Shifobaxsh (parhez) mahsulotlar - kimyoviy tarkibi va fizikaviy xossalari o‘zgartirilgan mahsulotlar. Shifobaxsh, hamda profilaktik ovqatlanishga (aholining alohida kontingentlari Yoki profesional guruhlari uchun) foydalanish uchun maxsus yaratilgan va shu maqsad uchun sog‘ liqni saqlash organlari tomonidan tavsiya qilingan mahsulotlar, shu jumladan, oqsil va boshqa ozuqaviy moddalari, ozuqaviy tolalar miqdori ko‘p bo‘lgan mahsulotlar, oziq-ovqat moddalari, shu jumladan, saxaroza, oqsil, xolesterin, natriy Yoki boshqa oziq-ovqat moddalari tanlab kamaytirilgan mahsulotlar va zond orqali ovqatlanish uchun mahsulotlar shu guruhga kiradi.

### **Oziq-ovqat mahsulotlarining qiymati**

**Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati** - bu insonning ozuqaviy va ta‘m beruvchi moddalarga bo‘lgan fiziologik talabini ta‘minlovchi xossalari majmui, ya‘ni mahsulotlarning ozuqaviy qimmati va iste‘molboplik xususiyatlarining majmuidir.

**Mahsulotlarning ozuqaviy (to‘yimlilik) qiymati** - bu mahsulotlarning biologik va energetik qimmatini belgilovchi moddalar komplektidir. Mahsulotlarning ozuqaviy qimmati ularning sifatliligi (zararsizligi), hazm bo‘lishi bilan to‘yimli va biologik faol moddalar massasining ulushi, organoleptik va fiziologik qimmatlari bilan tavsiflanadi.

**Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatliligi** - organoleptik va kimyoviy ko‘rsatkichlar bilan (rang, ta‘m, hid, konsistensiya, tashqi ko‘rinish, kimyoviy tarkib), toksinlarning (zaharlarning), kasallik tug‘ diruvchi mikroblarning (salmonellalar, proteya, botilinus va boshqalar), gjija tuxumlarining, zararli birikmalarning (simob, qo‘rg‘ oshin, 3,4-benzpiren, pestitsidlar va boshqalar) zaharli o‘simliklar urug‘ larining va begona aralashmalarning (metall, shisha va hokazolar) bo‘lmasligi bilan tavsiflanadi.

**Energetik qiymat** - mahsulotlardagi Yog‘ lar, uglevodlar va oqsillarni biologik oksidlanishi paytida hosil bo‘lgan energiya miqdori bo‘lib, u organizmning fiziologik funksiyalari uchun qo‘llaniladi. Organizmda 1 gr Yog‘ ning oksidlanishidan 9 kkalloriya, 1 gramm oqsil oksidlanganda 4 kkal (16,6 kJ), 1 gr hazm bo‘ladigan uglevodlar oksidlanganda - 3,75 kkal (15,7 kJ), 1 gr etil spirti oksidlanganda - 7 kkal (29,3 kJ) energiya ajraladi.

Ovqatlanish ratsioniga kiruvchi mahsulotlar energiya olish uchun, moddalar almashinushi uchun, inson organizmi to‘qimalarini tuzish uchun kerakli moddalarni yetarli miqdorda saqlashlari kerak. Bajariladigan ishning xarakteriga qarab insonga bir sutkada 12570-18885 kJ kerak. Akademik A.A. Pokrovskiy tomonidan ishlab chiqilgan balanslashtirilgan ovqatlanish nazariyasiga asosan, mahsulotlarning energetik qimmati moddalarning tabiiy almashinuviga mos tushishi kerak. Organizmning energiya sarfi va organizmga ovqat ko‘rinishida tushadigan energiya o‘rtasida muvozanat bo‘lishi muhimdir. Mahsulot ozuqaviy qimmatining muhim ko‘rsatkichi – to‘yimli moddalarning miqdori va ularning nisbati. Katta Yoshdagilar va katta Yoshdagagi bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlarida oqsillar, Yog‘ lar va uglevodlar o‘rtasidagi optimal nisbat 1:1:4, kichik Yoshdagagi bolalar uchun - 1:1:3 ga teng.

Biroq oziq-ovqat mahsulotlarining to‘yimliligi nafaqat ularning energetik qimmati bilan, balki biologik to‘la qimmatliligi bilan, ya‘ni almashinmaydigan aminokislotalar, polito‘yinmagan Yog‘ kislotalar, fosfolipidlarning balanslashtirilgan miqdori bilan ham belgilanadi.

**Biologik qiymati** - ozuqaviy oqsilning sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, ozuqaviy oqsildagi aminokislota tarkibini organizmda oqsil sintezi uchun kerakli aminokislotalarga bo‘lgan talablarga mos tushish darajasini aks ettiradi.

**Biologik samaradorlik** - hazm bo‘luvchanlik koefitsiyenti bilan ifodalanadi. Hazm bo‘luvchanlik mahsulotning tashqi ko‘rinishiga, konsistensiyasiga, ta‘mi va xushbo‘yligiga, uning tarkibida saqlanuvchi ozuqaviy moddalarning miqdoriga va sifatiga, hamda inson organizmining Yoshiga, o‘zini his etishiga va boshqa omillarga bog‘ liq. Aralash ovqatlanishda oqsillarning hazm bo‘lishi 84,5 %, Yog‘ larning hazm bo‘lishi 94, uglevoddarni hazm bo‘lishi 95,6 % ga teng deb qabul qilingan.

Organoleptik xossalaring mahsulot ozuqaviy qiymatiga ta‘siri insonning sezgi organlariga ta‘sir etish bilan, ovqatni hazm qilish apparatining sekrepor - motor faoliyatini qo‘zg‘ atish Yoki bostirish bilan bog‘ langan.

Tashqi ko‘rinish, konsistensiya, hid, ta‘m, tarkib, yangilik (tozalik) darajasi oziq-ovqat mahsulotlarining organoleptik qiymatini ifodalaydi.

Tashqi ko‘rinishi bo‘yicha optimal bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari: odatda yangi Yoki kam saqlangan mevalar, parhez tuxumlar, tirik baliq, yuqori sifatli xom ashyordan tayyorlangan non bulka mahsulotlari ishtahani ochadi va yaxshi hazm bo‘ladi, chunki ularda biologik faol moddalar ko‘p.

Jozibasiz, xira rangli, noto‘g‘ ri shaklli, notekis yuzali va juda yumshoq Yoki qo‘pol konsistensiiali, biologik faol moddalarini kam, past ozuqaviy qiymatli mahsulotlar Yomon hazm bo‘ladi. Tashqi ko‘rinishi va konsistensiysi nuqsonli mahsulotlar ko‘pincha organizm uchun zararli moddalarga ega.

**Mahsulotlarning fiziologik qiymati** deganda, ular tarkibidagi moddalarning asab, yurak-qon tomir, ovqatni hazm qilish va boshqa sistemalarga, hamda organizmning yuqumli kasallikkarga qarshilik ko‘rsatishi tushiniladi. Choydagagi kofein va kofe, kakao kukunidagi va shokoladdagi teobromin, alkogolli ichimliklardagi etil spirti asab va yurak qon tomir sistemalariga qo‘zg‘ atuvchi ta‘sir qiladi. Go‘sht, baliq, zamburug‘ larning ekstraktiv moddalarini, piYozning, sarimsoqning, qalampir va xantalning efir moylari va alkaloidlari ovqatni hazm qiluvchi shiralar ajralishini ko‘chaytiradi. Sutdagi immunitet jismlar va asaldagi antimikrob moddalar inson organizmini kasallikkarga chidamligini oshiradi. Toza sabzavot va mevalarda saqlanadigan tartron kislota organizmda Yog‘ yig‘ ilishiga to‘sinqlik qiladi. Tuzlangan sabzavotlardagi va sut-qatiq mahsulotlaridagi sut kislota ichakda chirish jarayonlarini bostiradi.

### **Mahsulotlarning kimyoviy tarkibini hisoblash**

Mahsulotlarning kimyoviy tarkibini hisoblashni konditer mahsulotlari misolida ko‘ramiz.

Konditer mahsulotlarining kimyoviy tarkibini hisoblash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 100 g tayyor mahsulot uchun sarflanadigan xom ashynoni hisoblash, bu konditer mahsulotlarining amaldagi retsepturasiga asosan olib boriladi;
- retsepturaga kirgan har bir xom ashynoning kimyoviy tarkibini aniqlash;
- konditer mahsulotlarining kimyoviy tarkibini aniqlash va olingan qiymatlarga asosan tayyor mahsulotning quruq modda miqdori hamda retsepturaga asosan xom ashydagi quruq modda yo‘qotuv meYorini tahlil qilish [ 2 ].

Konditer mahsulotlarining kimyoviy tarkibini hisoblashda 100 g. mahsulotdagi barcha xom ashylarning miqdorini hisoblash shart emas. Faqatgina “1 t. mahsulotga xom ashyo sarfi” yig‘ ma retsepturasidagi grafada vergulni bir belgi chapga surish kerak va olingan qiymatlar grammida Yoziladi (sh.e. 1 t. – 1000 kg., 1 kg. – 1000 g.).

Konditer mahsulotlarining kimyoviy tarkibini hisoblash yig‘ ma retseptura bo‘yicha oxirgi ikki grafani (umumiylar) 100 g. ga nisbatan grammga o‘tkazilib, tayyor mahsulot 0,01 g. aniqlikda hisoblash amalga oshiriladi. Kimyoviy tarkibining son qiymat ko‘rsatgichini 0,1 gacha aniqlikda olish kerak (vitaminlar uchun 0,01 gacha).

### **«Bolajon» shokoladi kimyoviy tarkibining namunaviy hisobi.**

«Bolajon» shokoladining amaldagi retsepturasiga asosan 100 g. Shokolad uchun o‘rov materialarisiz xom ashynoning retseptura sarfini hisoblaymiz. Hisoblash natijalarini 1-jadvalga kiritamiz.

100 g. shokolad uchun xom ashynoning retseptura sarfini aniqlab, oziq-oqvat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi jadvali [3] yoki boshqa axborot manbai bo‘yicha shokolad retsepturasidagi barcha xom ashyo komponentlarining kimyoviy tarkibini topamiz. Olingan qiymatlarni 2-jadvalga kiritamiz. Konditer mahsulotlarining kimyoviy tarkibini hisoblashda mahsulotlarning yig‘ ma retsepturasini ham hisobga olish kerak (retsepturalar to‘plami [5] ga qarang), va 1 tonna tayyor mahsulot uchun (naturada) barcha yo‘qotuvlarni hisobga olgan holda xom ashyo sarfi hisoblanadi. Bu esa hisoblashlarni osonlashtiradi.

Keyingi bosqichda 100 g. tayyor mahsulot , ya‘ni bizning misolimizda shokolad uchun retseptura sarfini hisobga olgan holda har bir xom ashynoning kimyoviy tarkibini hisoblash amalga oshiriladi. Olingan qiymatlarni 3-jadvalga kiritamiz.

100 g. «Bolajon» shokoladi retsepturasiga kiruvchi shakar kukunidagi mono- va disaxaridlar miqdorining namunaqiy hisobi:

100 g. shakar kukunida – 99,8 mono- va disaxaridlar;

100 g. shokoladda – 57,03 shakar kukuni, unda X g. mono- i disaxaridlar mavjud:

$$X = \frac{57,03 \times 99,8}{100} = 56,9 \text{ g.}$$

100 g. shokolad tarkibiga kiruvchi barcha komponentlarning kimyoviy tarkibi hisoblangandan so‘ng, olingan qiymatlar yig‘ ilib oxirgi natija olinadi (3-jadval).

100 g. shokoladning olingan kimyoviy tarkibini xom ashyo va tayyor mahsulotdagi quruq modda yo‘qotuvini hisobga olib (1-jadval) qaytadan hisob qilinadi.

Shokolad uchun o‘tkazish koeffitsiyentini hisoblash:

$$K = \frac{99,40}{101,02} = 0,984$$

Shunday ekan, “Bolajon” shokoladining kimyoviy tarkibi quyidagicha (g./100 g.):

$$\text{oqsil} \quad - 2,9 \times 0,984 = 2,9;$$

$$\text{Yog'} \quad - 34,5 \times 0,984 = 33,9;$$

$$\text{mono- va disaxaridlar} \quad - 57,3 \times 0,984 = 56,4;$$

$$\text{kraxmal va dekstrinlar} \quad - 3,0 \times 0,984 = 2,9;$$

$$\text{organik kislotlar} \quad - 0,5 \times 0,984 = 0,5;$$

$$\text{ozuqa tolalari} \quad - 0,7 \times 0,984 = 0,7,$$

va b. (3-jadval).

Faqat o‘rganila Yotgan mahsulot tarkibidagi vitamin va mineral moddalar miqdori aniqlanadi.

Makaron mahsulotlarining kimyoviy tarkibi ham huddi shunday hisoblanadi.

Non va non mahsulotlarining kimyoviy tarkibi o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, alohida usul bo‘yicha hisoblanadi [4]. 100 g. non mahsuloti uchun sarflangan xom ashyo miqdorini hisoblashda, mahsulot chiqishi, retseptura bo‘yicha quruq modda miqdori, xamir namligi va quruq modda sarfi, hamda non mahsulotlari tayyorlash jarayonida bir qator xom ashyo komponentlarining o‘zgarishlari ham hisobga olinadi.

## 1-jadval

100 g. «Bolajon» shokoladi ishlab chiqarish uchun retseptura bo'yicha xom ashyo sarfi

Xom ashyoning nomlanishi	Quruq moddaning massaviy ulushi, %	100 g. shokolad uchun xom ashyo sarfi (o'rov materiallarisiz), g.	
		naturada	quruq modda holida
Shakar kukuni	99,85	57,03	56,94
Qirg' ichdan o'tkazilgan kakao	97,80	21,73	21,25
Kakao moyi	100,00	22,43	22,43
Oziq-ovqat soyasining fosfatid konsentrati	99,00	0,40	0,40
Vanilin essensiyasi	--	0,06	--
Jami:	--	101,65	101,02
Chiqish:	99,40	100,00	99,40

2-jadval. «Bolajon» shokoladi retseptura komponentlarining kimyoviy tarkibi (100 g. komponentda g.)

Xom ashyoning nomlanishi	Miqdori, 100 g. xom ashyoda g.														
	Oqsil	Yog'	Mono- va disaxarid-lar	Kraxmal va dekstrin-lar	Kletchatka	Organik kislotlar	Vitaminlar, mg.	Mineral moddalar, mg.							
							V <sub>1</sub>	V <sub>2</sub>	RR	K	Sa	Mg	Na	P	Fe
Shakar kukuni	--	--	99,8	-	-	--	--	--	3	2	--	1	--	0,3	
Qirg' ichdan o'tkazilgan kakao	13,5	54,0	2,0	13,6	3,0	2,2	0,09	0,29	1,86	1340	10	50	4	430	6,5
Kakao moyi	--	99,9	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--
Oziq-ovqat soyasining fosfatid konsentrati	--	96,5	--	--	--	--	--	--	--	600	120	98	5	2400	10

Vanilin essensiyasi	--	--		--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--
------------------------	----	----	--	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----

3-jadval. «Bolajon» shokoladining kimyoviy tarkibi (100 g. shokoladda g.)

Xom ashyoning nomlanishi	Miqdori, 100 g. xom ashyoda g.														
	Oqsil	Yog‘	Mono- va disaxarid-lar	Kraxmal va dekstrin-lar	Kletchatka	Organik kislotlar	Vitaminlar, mg.			Mineral moddalar, mg.					
							V <sub>1</sub>	V <sub>2</sub>	RR	K	Sa	Mg	Na	P	Fe
Shakar kukuni Qirg‘ ichdan o‘tkazilgan kakao Kakao moyi Oziq-ovqat soyasining fosfatid konsentrati	- 2,9 - -	- 11,7 22,4 0,4	56,9 0,4 - -	- 3,0 - -	- 0, 7 -	- 0,5 - -	- 0,02 - -	- 0,06 - -	- 0,40 - -	1,7 291 - 2,4	1,1 2,2 - 0,5	- 11 - 0,4	0,6 0,9 93 0,02	- - - 9,6	0,2 1,4 - 0,04

## 1.2. Mahsulotlarning energetik qimmatini hisoblash

**Mahsulotlarning energetik qimmati** - mahsulotlardagi Yog‘ lar, uglevodlar va oqsillarni biologik oksidlanishi paytida hosil bo‘lgan energiya miqdori bo‘lib, u organizmning fiziologik funksiyalari uchun qo‘llaniladi. Organizmda 1 gr Yog‘ ning oksidlanishidan 9 kkalloriya, 1 gramm oqsil oksidlanganda 4 kkal (16,6 kJ), 1 gr hazm bo‘ladigan uglevodlar oksidlanganda - 3,75 kkal (15,7 kJ), 1 gr etil spirti oksidlanganda - 7 kkal (29,3 kJ) energiya ajraladi.

Ovqatlanish ratsioniga kiruvchi mahsulotlar energiya olish uchun, moddalar almashinuvni uchun, inson organizmi to‘qimalarini tuzish uchun kerakli moddalarni yetarli miqdorda saqlashlari kerak. Bajariladigan ishning xarakteriga qarab insonga bir sutkada 12570-18885 kJ kerak. Akademik A.A. Pokrovskiy tomonidan ishlab chiqilgan balanslashtirilgan ovqatlanish nazariyasiga asosan, mahsulotlarning energetik qimmati moddalarning tabiiy almashinuviga mos tushishi kerak. Organizmning energiya sarfi va organizmga ovqat ko‘rinishida tushadigan energiya o‘rtasida muvozanat bo‘lishi muhimdir. Mahsulot ozuqaviy qimmatining muhim ko‘rsatkichi – to‘yimli moddalarning miqdori va ularning nisbati. Katta Yoshdagilar va katta Yoshdagi bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlarida oqsillar, Yog‘ lar va uglevodlar o‘rtasidagi optimal nisbat 1:1:4, kichik Yoshdagi bolalar uchun - 1:1:3 ga teng.

Biroq oziq-ovqat mahsulotlarining to‘yimliligi nafaqat ularning energetik qimmati bilan, balki biologik to‘la qimmatliligi bilan, ya‘ni almashinmaydigan aminokislotalar, yarim to‘yinmagan Yog‘ kislotalar, fosfolipidlarning balanslashtirilgan miqdori bilan ham belgilanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining energetik qimmatini hisoblash uchun ovqat komponentlarining kimyoviy tarkibini, energetik qimmat koeffitsiyentini, ya‘ni 1 g. asosiy ovqat moddasining biologik oksidlanish natijasida hosil bo‘ladigan energiya miqdorini bilih zarur.

Mahsulotlarning kimyoviy tarkibi oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi jadvalidan [3] Yoki 1.1. bo‘limda ko‘rsatilgan usul bo‘yicha hisoblab topiladi. 4-jadvalda asosiy ovqat komponentlarining energetik qimmat koeffitsiyenti keltirilgan.

4-jadval. Energetik qimmat koeffitsiyenti

Ovqat komponentlari	Energetik qimmat koeffitsiyenti, kkal / g
Oqsil	4,0
Yog‘	9,0
Uglevodlar «turi bo‘yicha»	4,0
Mono- va disaxaridlar yig‘ indisi	3,8
Kraxmal va dekstrinlar	4,1
Kletchatka	0,0
Organik kislotalar	3,0

Oziq-ovqatlik qimmati bo'yicha uglevodlar o'zlashtiriladigan va o'zlashtirilmaydigan bo'ladi. O'zlashtiriladiganlariga: oddiy eruvchi qand moddalari (asosan glyukoza, fruktoza va saxaroza), ularni mono- va disaxaridlar ham deyishadi; polisaxaridlar, kraxmal va mahsulotlarning xususiy gidrolizlari (dekstrinlar) – ular «kraxmal va dekstrinlar» guruhini birlashtiradi; hamda glikogen kiradi. O'zlashtirilmaydigan uglevodlarga: selluloza (kletchatka), gemitsellyulozlar, pektin, inulin, mannan, gummi va slizi – ularni «ovqat tolalari» deb atashadi. Xom ashyo Yoki mahsulotlar tarkibidagi o'zlashtiriladigan uglevodlar miqdori to'g' risida ma'lumotlar bo'lмаган taqdirda «turlar bo'yicha» umumiyligini uglevodlar miqdori olinadi. 100 g. mahsulotdagi uglevodlar miqdori «turlar bo'yicha» hisoblanganda undan suv, oqsil, Yog‘, organik kislotalar, kletchatka va umumiyligini mineral moddalar miqdori (kul) ayirib tashlanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining energetik qimmati EQ, kkal, 100 g. mahsulot uchun hisoblanadi:

$$EQ=O \times 4,0 + YO \times 9,0 + U \times 3,8 + K \times 4,1 + OK \times 3,0, \quad (1)$$

Bu yerda, O - 100 g. mahsulotdagi oqsil miqdori, g;

YO - 100 g. mahsulotdagi Yog‘ miqdori, g;

U - 100 g. mahsulotdagi mono- va disaxaridlar (qand) miqdori, g;

K - 100 g. mahsulotdagi kraxmal va dekstrinlar miqdori, g;

OK - 100 g. mahsulotdagi organik kislotalar miqdori, g.

Oziq-ovqat mahsulotlari energetik qimmati bo'yicha ham guruhlarga bo'linadi:

1. O'ta yuqori energiyali – 100 g. mahsulotda 400-900 kkal;

2. Yuqori energiyali – 100 g. mahsulotda 250-400 kkal;

3. O'rta energiyali – 100 g. mahsulotda 100-250 kkal;

4. Past energiyali – 100 g. mahsulotda 100 kkal gacha.

### **Energetik qimmatni hisoblash bo'yicha namunalar**

«Bolajon» shokoladi misolida mahsulotning energetik qimmatini hisoblaymiz. «Bolajon» shokoladining energetik qimmatini 3-jadvaldagi qiymatlarga asosan (1) formulaga muvofiq hisoblaymiz:

$$EQ=2,9 \times 4,0 + 33,9 \times 9 + 56,4 \times 3,8 + 2,9 \times 4,1 + 0,5 \times 3,0 = 544,4 = 544$$

Energetik qimmat butun son holida ifodalanadi. Shunday ekan, 100 g. «Bolajon» shokoladining energetik qimmati 544 kkal ni tashkil etadi. Shokolad guruhanishiga muvofiq o'ta yuqori energetik mahsulot hisoblanadi.

Mahsulotning hisoblangan kimyoviy tarkibi va energetik qimmatini 5-jadvalga qo'yamiz.

5-jadval. «Bolajon» shokoladining kimyoviy tarkibi va energetik qimmati

Oziq moddalar, o‘lchov birligi.	100 g. Shokoladdagi miqdori
Oqsil, g	2,9
Yog‘, g	33,9
O‘zlashtiriladigan uglevodlar, g: shundan, mono- va disaxaridlar, g;	$56,4+2,9=59,3$
kraxmal va dekstrinlar, g	56,4
Kletchatka, g	2,9
Organik kislotalar, g.	0,7
Vitaminlar, mg	0,5
V <sub>1</sub> (tiamin)	0,02
V <sub>2</sub> (riboflavin)	0,06
RR (niatsin)	0,40
Mineral moddalar, mg	
kaliy	290,4
kalsiy	3,7
magniy	11,2
natriy	1,5
fosfor	101,0
temir	1,6
Energetik qimmati, kkal	544

## 1.2. Mahsulotdagi oqsilning biologik qimmatini hisoblash

**Biologik qiymati** - ozuqaviy oqsilning sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, ozuqaviy oqsildagi aminokislota tarkibini organizmda oqsil sintezi uchun kerakli aminokislotalarga bo‘lgan talablarga mos tushish darajasini aks ettiradi.

Oqsilning biologik qimmatini aniqlashning asosiy usuli – bu aminokislotali skor usuli. Bu ovqat oqsilidagi almashinmaydigan aminokislota tarkibini etalon Yoki “ideal” oqsildagi aminokislotalar tarkibi bilan taqqoslab aniqlash usulidir.

Etalon oqsil sifatida FAO/VOZ shkalasidan foydalaniladi.

1 g. shunday oqsil tarkibida quyidagi miqdorda almashinmaydigan aminokislotalar bo‘ladi (mg.).

Izoleysin	- 40
Leysin	- 70
Lizin	- 55
Metionin+sistin	- 35
Fenilalanin+tirozin	- 60
Treonin	- 40
Triptofan	- 10
Valin	- 50

i. Biron-bir mahsulotning biologik qimmatini aminokislotali skor usulida aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- mahsulotning 1 g. oqsilidagi almashinmaydigan aminokislotalar miqdorini hisoblash (mahsulotning 1 g. oqsilda mg da);
- aminokislotali skorni aniqlashda mahsulot oqsilidagi har bir almashinmaydigan aminokislotalarni navbat bilan FAO/VOZ shkalasiga taqqoslash lozim;
- skori 100 % dan kam va o'ta kam limitlavchi aminokislotalarni aniqlash.

Agar aminokislotali skorni aniilashda 100% dan kam olingan bo'lsa, u holda skori kamroq bo'lgan birinchi limitlovchi aminokislotalarni ajratish kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlari oqsilda bir dona bo'lsada limitlovchi aminokislota bo'lsa, bu oqsil to'liq qimmatli hisoblanmaydi. Agar shunday aminokislotalar bo'lmasa to'liq qimmatli hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi almashinmaydigan aminokislotalar bo'yicha aminokislotali skorni ( $S_i$ , %) hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$S_i = \frac{A_i}{D_i} \cdot 100, \quad (2)$$

bu yerda,  $A_i$  – 1 g tekshiriladigan o'ssildagi oerni şoplanmaydigan  $i$ -aminokislotalar mišdori, mg/g;

$D_i$  – 1 g etalon o'ssildagi  $i$ -aminokislota mišdori, mg/g

100 – foizga oetkazish koeffitsiyenti

Agar oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibining jadvali (3)dan tekshirila Yotgan mahsulot oqsilining aminokislota tarkibini topib formula (2)dan foydalanish mumkin.

Aks holda, agar oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibining jadvalida oqsil va aminokislota miqdori to'g' risida ma'lumot bo'lmasa, u holda mahsulot retsepturasiga kiruvchi xom ashylar bo'yicha aminokislotali skorni hisoblash maqsadga muvofiq.

Agar tekshirila Yotgan mahsulotdagi oqsil bir necha xom ashyo bo'yicha bo'lsa, aminokislotali skor quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$S_i = \frac{\sum_{k=1}^n X_k Z_k A_{ki}}{\sum_{k=1}^n X_k Z_k} \times 100 \quad D_i, \quad (3)$$

bu yerda,  $X_k$  – retsepturadagi har bir komponentning miqdori,  $k = 1 \dots n$ , g;

$Z_k$  - retsepturadagi har bir komponentdagi oqsilning miqdori,  $k = 1 \dots n$ , g;

$A_{ki}$  - retsepturadagi har bir komponent oqsilidagi aminokislotalarning miqdori, komponentdagi 1 g. oqsilda mg;

$D_i$  - FAO/VOZ shkalasi bo'yicha etalon oqsildagi aminokislotalar miqdori, 1 g. etalon oqsilda mg.

## Oqsilning biologik qimmati bo'yicha namunaviy hisoblar

Oliy navli undan tayyorlangan makaron mahsulotlari oqsili misolida biologik qimmatni hisoblashni bajaramiz.

Hisoblash natijalarini 6-jadval ko'rinishiga keltiramiz.

Oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibining jadvali (3)dan makaron mahsulotlarining aminokislota miqdorini Yozib olamiz.

1 g makaron mahsuloti oqsilidagi aminokislota miqdorini hisoblaymiz:

100 g makaron mahsulotida – 12,3 g oqsil, unda 470 mg izoleysin mavjud;

1 g oqsilda - X mg izoleysin mavjud

$$1 \times 470$$

$$X = \frac{1}{12,3} = 38$$

$$12,3$$

Formula (2) bo'yicha aminokislotali skorni hisoblaymiz.

6-jadval. Oliy navli undan tayyorlangan makaron mahsulotlari oqsilining biologik qimmati

Aminokislotalaring nomlanishi	Miqdori		Etalon oqsil, 1 g. oqsilda mg	Aminokislotali skor, %
	100 g makaron mahsulotlari oqsilida, mg	1 g makaron mahsulotlarida, mg		
Izoleysin	470	38	40	95
Leysin	866	70	70	100
Lizin	249	20	55	36
Metionin-sistin	189+307	40	35	114
Fenilalanin+tirozin	626+286	74	60	123
Treonin	331	27	40	67
Triptofan	125	10	10	100
Valin	518	42	50	84

Bajarilgan hisoblashlarga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin. Oliy navli undan tayyorlangan makaron mahsulotlarining biologik qimmati undagi to'rtta limitlovchi aminokislotalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi, ya'ni - izoleysin (S=95%), lizin (S=36%), treonin (S=67%), valin (S=84 %). Lizin birinchi va asosiy limitlovchi aminokislota hisoblanadi. Shunday ekan, oliy navli bug'doy unidan tayyorlangan makaron mahsulotlari oqsili to'liq biologik qimmatga ega emas ekan.

## Mahsulotdagi lipidlarning biologik samaradorligini hisoblash

Biologik samaradorlik - Biologicheskaya effektivnost – pokazatel kachestva jirovix komponentov pishevix produktov, otrajayushiy soderjaniye v nix polinenasishennix jirnix kislot.

Biologicheskaya effektivnost lipidov, opredelyayemaya strukturnimi xarakteristikami jirnix kislot, a takje ix sootnosheniym mejdusoboy i drugimi

pishevimi komponentami , xarakterizuetsya kak kompleksniy pokazatel, uchitivayushiy ix vozdeystviye na organizm cheloveka.

Prinyato , chto v 100 g. lipidov , neobxodimix v yejednevnom ratsione vzroslomu cheloveku , na dolyu nasishennix jirnix kislot (NJK) prixoditsya 20 g, na dolyu polinenasishennix jirnix kislot (PNJK)-6 g, na dolyu oleinovoy kisloti-35 g.

S selyu ispolzovaniya etix dannix dlya rascheta biologicheskoy effektivnosti lipidov razlichnih produktov pitaniya vvedeno ponyatiye «idealnyi lipid», predstavlyayushiy soboy gipoteticheskiy produkt, soderjashiy PNJK(6 g), NJK (20 g) i oleinovuyu kislotu (35 g) v neobxodimoy proporsii, koefitsiyent biologicheskoy effektivnosti kotorogo raven 1.

Raschet koefitsiyenta biologicheskoy effektivnosti lipidov pishevix produktov osnovan na opredelenii skorov po fraksiyam jirnix kislot.

Podobno aminokislotnomu skoru dlya belkov skor dlya lipidov opredelyayetsya kak otnosheniye kolichestva konkretnoy fraksii jirnix kislot v issleduemom obrazse lipidov pishevogo produkta ( $F_{i1}$ -NJK ,  $F_{i2}$ -PNJK,  $F_{i3}$ - oleinovaya kislota, i-poryadkoviy nomer issleduemogo obrazsa pishevogo produkta) k kolichestvu etoy je fraksii v «idealnom lipide» (  $F_{01}$ -NJK,  $F_{02}$ - PNJK,  $F_{03}$  –oleinovaya kislota). Raschet skora dlya lipidov  $C_{ij}$  , %, osushestvlyayetsya po formule

$$C_{ij} = \frac{F_{ij}}{F_{0j}} \times 100; \quad j=1,3, \quad (4)$$

gde  $F_{ij}$  - soderjaniye fraksii jirnix kislot v issleduemom lipide, g na 100 g lipida;  
 $F_{0j}$ - soderjaniye fraksii jirnix kislot v «idealnom lipide», g na 100 g « idealnogo lipida».

Koeffitsiyent ispolzovaniya lipidov ili koefitsiyent biologicheskoy effektivnosti lipidov  $\psi_i$  , rasschitivayetsya po formule

$$\psi_i = \frac{3C_{ik}}{\sum_{j=1}^3 C_{ij}}; \quad k=1,3, \quad (5)$$

gde  $C_{ik}$  – naimenshiy skor po lyuboy iz fraksiy lipidov pishevogo produkta, % ;  
 $C_{ij}$ - skor dlya lipidov po kajdoy konkretnoy fraksii, %.

Naimenshaya velichina skora po lyuboy iz fraksiy lipidov pishevogo produkta ispolzuetsya v formule (5) na osnove polojeniya ob usvoyenii lipidov po minimalnomu urovnyu lyuboy iz fraksiy t.ye., yesli  $C_{i1} < C_{i2} < C_{i3}$ , to vse jirnokislotniye fraksii usvaivayutsya na urovne  $C_{i1}$ , a izbitok kajdoy fraksii, ravniy ( $C_{i2}-C_{i1}$ ) i ( $C_{i3}-C_{i1}$ ), deponiruetsya v organizme ili postupayet na yego energeticheskiye nujdi.

Dlya predlojennogo gipoteticheskogo lipida  $C_{ik}=C_{i1}=C_{i2}=C_{i3}$ , a koefitsiyent biologicheskoy effektivnosti lipidov  $\psi=1$ .

